

TEKNOLOGI FANINI SIFATINI OSHIRISHGA FANLARARO INTEGRASIYANING AHAMIYATI.

Abiyarqulova Muxlisa Rustam qizi

*Samarqand davlat pedagogika instituti
Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati, uning mohiyati texnologik ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan xalq hunarmandchiligini fanini o'qitishda tarix fani bilan integratsiyasi ko'rib chiqilgan*

Kalit so'zlar: *Fanlararo integratsiya, ta'lim, xalq hunarmandchiligi, texnologik ta'lim, zarduzlik, fanlararo bo'lanish.*

Ma'lumki, oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning natijadorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Keyingi yillarda xalqaro andozalar talabiga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalardan biriga aylandi.

Shuning uchun mamlakatimizga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bir qator qonun, farmon, qarorlar va boshqa hujjatlar ishlab chiqilib amalda qo'llanilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ta'lim sifatini oshirishning juda ko'p yo'llari mavjud bo'lib, bu borada oliy ta'lim muassasalarining integratsion hamkorligi va fanlararo integratsion bog'lanishlarining ahamiyati juda katta.

Ma'lumki, fanlararo o'zaro bog'lanish, har bir fanning yanada rivojlanishi uchun asosiy faktorlardan biri hisoblanadi. Malakali mutaxassis tayyorlashda fanlararo integratsiyaning atrof muhitda bo'ladigan o'zgarishlarni ilmiy nuqtai nazardan tushunib yetish va mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijodiy faolligini rivojlantirishga imkoniyat berish.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini malakali mutaxassis sifatida tayyorlash jarayonida beriladigan bilimlar fanlararo o'zaro integratsiya, ya'ni, o'zaro bog'liqlik asosida berilsa, bu ta'lim berish sifatini oshiruvchi faktorlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash o'quv rejasida xalq hunarmandchiligi fani ham kiritilgan bo'lib, ma'lum bir bilimlar o'rgatiladi.

Ushbu maqolada biz xalq hunarmandchiligi va tarix fanlari orasidagi o'zaro bog'liqlarni xalq hunarmandchiligida o'qitiladigan zardo'zlik san'ati masalan zardo'zlik san'atining paydo bo'lishi rivojlanish bosqichlarini qisqa misolida ko'rib o'tamiz.

Fanlararo integratsiya yoki integratsion o'qitish o'quv-bilim faoliyati nafaqat jadallashtirish, tizimlashtirish va optimallashtirishga balki turli soha madaniyatini ham egallashiga imkon beradi. Holbuki madaniyat turi inson ongini belgilaydi. Shuning uchun hozirgi zamon ta'lim sohasida integratsiya juda dolzarb va zarurdir. Integratsiyalangan o'qitishga fanlararo integratsiya asosiy rol o'ynaydi.

Fanlararo integratsiya-bu umuman, olganda turli fanlar orasidagi aloqa-integratsiyadir. Fanlararo integratsiyaning metodologik asosi moddiy olamning yaxlitligi, nazariya va amaliyotning birligi, olam, jamiyat va tafakkurning o'zgarishi, rivojlanishi hisoblansa, psixofizologik asosi esa inson tafakkuri, ya'ni fikr yuritish tabiatidan kelib chiqib, o'rganilayotgan fanlarning yangi qirralarini bilishga imkon beradi, ko'lami jihatidan keng va chuqur, mohiyatiga ko'ra yaxlit tizim shaklidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, shaxsiy fazilatlarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fanlararo integratsiyaning muammolari va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ma'lum bir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Fanlararo integratsiyaning o'ziga xos qo'yidagi jihatlari ilmiy asoslab berilgan. Bular:

1.Fanlararo integratsiyaning o'qitishdagi mohiyati va ahamiyati.

2.Fanlararo integratsiya asosiy tuzilmaviy komponentlari, ularning mazmuniy asosi.

3.Fanlararo integratsiyaning amalga oshirish bo'yicha pedagoglar faoliyatlarining asosiy yo'nalishlari.

4.Fanlararo integratsiyaning yaratish uchun o'quv fani mazmunida yetakchi mavzularni tanlab olishga quyidagi mezonlarga amal qilish kerak :

5.O'quv fanining asosiy g'oyalari va yetakchi qoidalarini yoritish uchun tanlangan mavzuning dolzarbligi , ahamiyatliligi;

6.O'quv mavzusi mazmuniga turli xil bilimlarni umumlashtirish va bog'lanishning yuqori darajada bo'lishi

Bizga xalq badiiy san'ati, texnologiya fanidan ham xalq hunarmandchiligi fanidan ham ma'lumki, har bir san'atning o'zining tarixi va rivojlanishi mavjud. Tajribalardan shu narsa aniqlanganki Zardo'zlik san'ati ham qidimiy tarixga ega:

Tarixiy ilmiy izlanishlardan qaraydigan bo'lsak zardo'zlik san'atitarixining boshlanish nuqtalarini ko'rishimiz mumkin.

Zardo'zlikning vatani qadimgi Yunoniston hisoblanadi. Keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan qadimgi Misr hamda Bobilda ham zardo'zlik rivojlana boshlaydi. Ayniqsa, Qadimgi Bobil (Vavilion) o'zining kashtali qimmatbaho matolari bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Keyinroq zardo'zlik Qadimgi Bobil bilan yaqin aloqada bo'lgan Eron podsholigi saroyida ham rivojlana boshlaydi. Aslzodalar hayotida muhim o'rin egallay boshlagan zardo'zlik Eron orqali asta-sekin Afg'oniston, Hindiston va ularga qo'shni bo'lgan O'rta Osiyo mamlakatlariga tarqala boshlaydi. Har bir mamlakatda u o'ziga xos tarzda shakllanadi va taraqqiy etadi.

Arxeologlarning ilmiy ishlaridan qaraydigan bo'lsak

Arxeologlar ajdodlarimizning yer qatlamlari ostida qolib ketgan qadimiy yashash manzillarini va qabrlarini o'rganib ular I-II asrlardayoq zarbof kiyimlar va zardo'zi buyumlardan foydalanganligini aniqlashgan. O'sha davrlarda zar iplar, bezaklar faqat qimmatbaho sof metall va toshlardan tayyorlangan. Ularning kimyoviy turg'unligi sabab, ular bilan tikilgan gullar chirib ketgan matolar ustida ham o'z ko'rinishini

yo'qotmagan. Bu qabrlar, shubhasiz, shohlar, saroy ahllari hamda badavlat kishilarga tegishli bo'lgan. Ular bunday libos va buyumlardan o'z boyliklari, kuch-qudratlari hamda shon-shuhratlarini namoyish etish, oddiy xalqdan o'zlarini ustun qo'yish uchun foydalanishgan. Shuning uchun bu davrda zardo'zlik ustaxonalari faqatgina podsho saroylarida joylashgan. Podsholik ustaxonalarida podsholikning eng sara zardo'zlari ishlashgan.

Zardo'zlik ustaxonalarining podsho saroylarida joylashganligi o'sha davrlarda uning podsholik poytaxti bo'lgan shaharlardagina taraqqiy etishiga olib kelgan. Masalan, zardo'zlik san'ati bizning hududlarda ya'ni Somoniylar va G'aznaviylar davrida Buxoroda, Temuriylar davrida Samarqand va Hirotida gullab-yashnagan, Mang'it amirlari davrida yana Buxoroga ko'chgan. Xiva va Farg'ona shaharlarida ham birmuncha rivoj topgan.

Ayniqsa, XVIII asr oxirida Buxoro xoni Amir Abdullaxon tomonidan zardo'zlik xususiy ustaxonalari ochishga ruxsat berilishi boshqa shaharlarga qaraganda Buxoroda zardo'zlikning gullab-yashnashiga sabab bo'ldi.

Hozirda An'anaviy urf-odatlar va marosimlarning tiklanish jarayonida zardo'zlik buyumlari turli maqsadlarda qo'llanila boshladi. Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Urgut, Qarshi, Jizzax shaharlari, Surxondaryo (ayniqsa, Boysun, Denov, Sariosiyo va Uzun tumanlari) viloyatlari zamonaviy zardo'zlik san'atining markazlariga aylandi.

Shunday qilib, zardo'zlik san'atini tushuntirishda uning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, tarix fani qonunniyati ilmiy nuqtayi nazaridan izohlab berishga imkoniyat yaratib berar ekan.

Xuddi shuningdek xalq hunarmandchiligi fanidagi boshqa mavzularni ham talabalarga tarix fanining ahamiyati katta bo'lib, xalq hunarmandchiligi va tarix fanlarining integrasiyasi yordamida, xalq hunarlari san'atlarini tushuntirib berish mumkin.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, fanlarni integrasiyalari ta'lim oluvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishini ko'chaytiradi, bilim darajasini oshiradi, o'quv materiallarining o'zaro uzviylikda bo'lishini ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, integrativ o'quv predmeti mazmunini tanlash va ma'lum tizimga keltirish jarayonini jamiyatning aniq soha mutaxassislariga qo'ygan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy ishlab chiqarish va shu kabilarni tanlash, soha fani texnikasi va ishlab chiqarish texnologiyasining hozirgi zamondagi rivojlanganlik darajasi va istiqbolga mos keladigan axborotlarni tanlab olish; tanlab olingan ma'lumotlarga pedagogik ishlov berilib, o'quv meyoriy hujjatlarga kiritish: integrallashgan materialni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish; tahsil oluvchilar tomonidan o'quv materiallarining mazmuni qanday o'zlashtirilayotganligi va amaliyot talabining qanday qondirilayotganligini aniqlash; aniqlangan muammolarning yechimini topish va zarur yo'nalishlarga ko'ra takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan materialdan ko'rinadiki, atrof muhitda bo'ladigan hodisalarini o'rganishda fanlararo integratsiya, ya'ni o'zaro bog'liqlikni ahamiyati juda katta ekan.

Bu esa ta'lim berish sifatini oshirishda muhim faktor sifatida katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Abdullayev.B.S "Fanlararo aloqadorlikining metodologik-didaktik asoslari"
Ped.fan.dok.dis.-T, O'z PFITI. 2006 . -164 bet.

Xasanov A, O'raqova Sh. "Ta'lim tizimida fanlararo integratsiya". Kasb hunar ta'limi. 2019. № 2 .39-42 betlar.

Baxriddinova D. "Texnologiya fanlari samaradorligini oshirishda integratsiyaning ahamiyati". Kasb-hunar ta'limi. 2019. № 2 .36-38 betlar.

G'ulomov K. Amaliy san'at. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007.

D. Jabborova. Zardo'zlik texnologiyasini o'qitish uslubiyoti. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Bilim", 2005.

Jalilov N. THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF TECHNOLOGICAL SCIENCE CLASSES Journal of Applied Science and Social Science, 2025

Jalilov N. Texnologiya ta'limi fanini o'qitishda axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari "o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar" jurnali 2024/4/23

Jalilov N. Texnologiya ta'limi ta'limida zamonaviy axborot texnologiya ta'limilardan foydalanish – ta'lim sifatini oshirish omili. – Rossiya: «образование и наука в xxi веке». Выпуск № 9 (часть 2) (апрель, 2023).

Jalilov N. Texnologiya ta'limi ta'limi fanini o'qitishda axborot kommunikasion texnologiya ta'limilardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari "o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar" jurnali 2024/4/23